

**DEYKTIK BIRLIKLARNING REFERENSIAL XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10055433>

**Ochilova Risolat Rasulbek qizi**

*Andijon davlat chet tillari institute Roman - german va slavyan tillari fakulteti*

*Filologiya va tillarni o'qitish (Fransuz tili) ta'lim yo'nalishi iqtidorli talabasi*

**M.S.Ishanjanova**

*Ilmiy raxbar: Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti, PhD,*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada deyktik birliklarning referensial xususiyatlari olimlarning nazariyalari asosida yoritiladi. Shuningdek, atoqli otlarning referensial jihatlari misollar asosida tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *refersiya, atoqli otlar, semantik nazariya, belgi, mazmun*

Matnning referensial xususiyati deysis nazariyasi bilan bog'liq sanaladi. U.Montegyu, P.Strosolar fikricha, pragmatikaning tadqiqot predmeti hisoblangan deyktik iboralar ("men", "sen", "bu yerda", "hozir" kabilar) matn mazmunini ochib berishda ahamiyatlidir [1]. Deysis hodisasi nutqiy tuzilmalarda shaxs, makon, zamonga ishora ma'nolari bilan alohida e'tiborni tortadi. Ulardan makonni ifodalovchi deyktik birliklar (bu yerda, u yerda, shu yerda, o'sha yerda kabi) makon referensiyasida ma'lum makon mo'ljali haqida aniq tasavvur uyg'otadi.

Olimlar referensiya nazariyasini uzoq vaqtlardan buyon tadqiq etib kelayotgan bo'lsa-da, deyktik birliklarning fonologik, kognitiv, pragmatik jihatlari o'z yechimiga yetgani yo'q. Semantik referensiya nazariyasi asoschisi deysisni uch tomonlama tadqiq etib, uch unsur: belgi, ma'no va mazmun tartibini belgilaydi [2]. Belgi yoki nom ma'no yordamida mazmunni aks ettiradi. So'z ma'nosi talaffuz qilinayotgan nom bo'lsa, mazmun o'sha predmetning o'zidir. Turlicha qo'llangan nomlar bir mazmunga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, "Aristotel" ismi "Makedonskiyning ustoz"i yoki "Platonning shogirdi" degan ma'nolarni bildiradi. Nomlar borliqdagi aniq mavjud sub'yekt va ob'yektni bildirib keladi. "Pegas", "Gogas", "Odissey" kabi oddiy nomlar ham mavjud bo'lib, ular ma'noga ega (ya'ni, atoqli ot xolos), lekin mazmunga ega emasligi ta'kidlanadi [3].

B.Rassel o'z tadqiqotlarida G.Fregening semantik nazariyasini tanqid qilganligini kuzatamiz, jumladan, olim kundalik nutqda atoqli otlar kam qo'llanilishini hamda atoqli otlarning referenti aniq yakka predmet yoki yakka shaxs deb bo'lmasligini ta'kidlaydi [4]. Bu borada o'zbek tilshunos olimi Sh.Safarov ham agar atoqli otlarning referenti yolg'iz shaxs deb qaralsa, B.Rasselning "Principa mathematica" asarining muallifi degan mazmunda tushunishimiz mumkin emasligini, chunki B.Rassel bu asarda hammuallif sanalishini aytadi [4]. Tadqiqotlarda ko'rinadiki, referensiya nazariyasida atoqli otlar o'zida ma'lum ma'no va mazmunni kasb etishi ularni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi.

B.Rasselning ishlarida referensiyani yoritishda propozitsional mantiqiy funksiyani qo'llagani kuzatiladi. U "Men odamni uchratdim" (bu yerda qandaydir aniq odamni uchratganini nazarda tutadi), "Men X ni uchratdim va X — bu odam" deb, X o'rniga qandaydir ism qo'yilsa propozitsiya mazmuni chin, agar ism qo'llanilmasa propozitsiya yolg'onligini e'tirof etadi [4].

Lison falsafasi va matematikaning ayrim sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan M.Dammit fikricha, semantik nazariya referensiya bilan birga til munosabatlarini ham o'rganadi. Munosabatlar to'g'ri kelgandagina, gap mazmuni haqiqiyliigi, ya'ni ma'noning nutqdagi voqelanishi bilan mos kelishini aniqlaydi va unga ko'ra gaplarning chinligini aniqlovchi ma'no nazariyasining o'zagi, ya'ni yadrosini "referensiya nazariyasi" tashkil etadi deb izohlaydi [5]. Referensiya nazariyasi nutqqa kiritilgan nomlovchi lisoniy birliklarning borliqdagi ob'yektga munosabati, bog'liqligi deb ta'riflanib, referensiya hodisasi mazmuniga so'zlovchining maqsadi, hissiyoti, nutq yo'nalishi, suhbatdoshlarning bilimi, lisoniy faoliyat niyati tushunchalari kiritiladi [1]. So'z va boshqa lisoniy birliklar, eng avvalo, nutqda qo'llash uchun mo'ljallanayotgan predmet va hodisani nomlash, ifodalash uchun xizmat qiladi. Ma'no til birliklarining voqelik bilan munosabatini, referensiya til birliklarining ob'yekt bilan munosabatini aks ettiruvchi hodisa sanaladi.

G.Frege va B.Rassellarning konsepsiyalaridagi farq shuki, G.Frege nom va tagma'noni sinonim tushuncha, nomlar ma'no yordamida ob'yektning denotativ mazmunini ochib beradi deb hisoblaydi. Rassel nazariyasi esa medial mazmunni aks ettirmay, balki bunda propozitsiyalarning aniq konstituyentlari belgilari sifatidagi frazalarning muhokamalaridan kelib chiquvchi mavhum ma'noning muammolarini hal qiladi.

Keyinchalik S.A.Kripke referensiyani tadqiq etish jarayonida uni ikkiga bo'lib so'zlovchi nutqining matni va lisoniy niyati, ikkinchisini – til konvensiyasi deb farqlaydi [6].

Referensiyaning pragmatik konsepsiyalari tilda semantik, nominativ va deyktik nazariyalarga bo'lib o'rganiladi [7]. Ular til birligi va qayd etilayotgan ob'yekt o'rtasidagi bog'lanish qaysi tipdagi munosabatga kirishishiga ko'ra farqlanadi.

Semantik nazariyada referensiya atoqli otlar hisobiga kengayadi. B.Rassel tilshunoslikka atoqli otlar yashirin deskriptiv xususiyatga ega degan fikrni olib kirdi va ularning denotati yagona predmet sifatida qaralishini ta'kidlaydi [8]. Masalan: Abdulla Qodiriy atoqli oti o'zida "O'tkan kunlar" asari muallifi deskripsiyasini yashiradi.

Xulosa qilib aytilganda, atoqli otlar deyktik xususiyatlar kasb etib, bunda bolalar nutqi, kattal nutqida o'ziga xos ifodalanadi. Uning bu jihatlari deyksisning fonologik xususiyatlarini ham tadfif etishga zamin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Павилёнис Р. Понимание речи и философия языка. В кн. Новое в зарубежный лингвистике. Вып. XVII. — Москва: Прогресс, 1986. — С. 380-389.

2. Фреге Г. Логика и логическая семантика: Сборник трудов. — Москва: Аспект Пресс, 2000. — С. 511.
3. Сафаров Ш. Семантика. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. — Б. 41.
4. Рассел Б. Избранные труды // Вступ. ст. В. А. Суровцева; пер. с англ. В. В. Целищева. В. А. Суровцева. — Новосибирск: Сиб. унив. изд-во, 2009. — С. 260.
5. Даммит М. Что такое теория значения. В кн.: Философия. Логика. Язык. — Москва: Прогресс, 1987. — С. 127-212.
6. Крипке С. Тождество и необходимость // Новое в современной лингвистике. Вып. 13: Логика и лингвистика (проблемы референции). — Москва: Радуга, 1982. — С. 340-376.
7. Ishanjanova M. Fransuz va o'zbek tillarida makon deyksisining uslubiy xoslanishi. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 1 (61). 119-128. URL: <https://www.ajhuman.uz/article/766030554288/abstract>
8. Рассел Б. Избранные труды // Вступ. ст. В. А. Суровцева; пер. с англ. В. В. Целищева, В. А. Суровцева. — Новосибирск: Сиб. унив. изд-во, 2009. — С. 260.
9. Ishanjanova M. THE ROLE OF DEICTIC UNITS IN THE LITERATURE TEXT. The Way of Science International scientific journal, № 12 (58), 2018, Vol. II P.54-57. URL: [http://scienceway.ru/f/the\\_way\\_of\\_science\\_no\\_12\\_58\\_december\\_vol\\_ii.pdf](http://scienceway.ru/f/the_way_of_science_no_12_58_december_vol_ii.pdf)